



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 31, June, 2024

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

Linguo-Pragmatic Features Of Personal Pronouns

Pardaev Zafar,

dotsent, filologiya fanlari nomzodi,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston
E-mail: pzafar441@gmail.com

Uralova Ruxshona,

2-kurs talabasi
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti,
Samarqand, O'zbekiston

Annotation: This work analyzes the stylistic-pragmatic conditions that give rise to various shades of personal pronouns, as well as the linguistic and extralinguistic factors that bring these possibilities to fruition. It highlights the role and importance of pronouns in the speech process in the Uzbek language, examining their unique stylistic, communicative-pragmatic characteristics and possibilities in specific contexts and speech situations.

Keywords: Linguistic-pragmatic speech act, evaluation, intention, communicative situation, internal speech, predicate, modus, illocutionary force, explicit expression, perlocutionary aim, perlocutionary effect, pragmatic effect.

Olmoshlar ot, sifat, son va ba'zan boshqa so'z turkumlari o'rnida qo'llanib, predmet va unga xos bo'lgan belgining mavjudligini ko'rsatadigan murakkab kategoriyadir. Olmosh predmetlikni yoki uning belgisini doimiy emas, balki muayyan o'rinlarda ifoda qiladi. Shu jihatdan olmosh mustaqil so'z turkumi hisblansa-da, mazmun jihatdan konkret denotativ komponentga ega bo'lmaydi, hech narsani nomlamaydi, ular moddiy va ma'naviy olam haqidagi tushunchalar mazmunini chuqurlashtiradigan, farqlovchi, qiyoslovchi va birlashtiruvchi ma'nolarni bildiradi. "Ichi bo'sh so'zlar - ma'no qobig'i bo'sh so'zlarga olmoshlar va atoqli otlar kiritiladi. Olmosh va atoqli otlar pragmatik funksiyaga ega bo'lib, matn ichida ma'lum nutq vaziyati bilan aloqador ma'no ottenkalari bilan to'ldiriladi. Aynan nutq vaziyati bilan bog'liq ma'no ottenkalari matnda pragmatik funktsiya bajarish uchun xizmat qiladi" [3:43]. Olmoshlar uch xil semantik: **deyksis** (ya'ni, ma'nosi kontekstual ko'rsatish yoki ishoraning maydonida voqelanishi), **substitutsiya** (ma'noli so'zni almashtirish) va **anafora** (oldin tilga olingan shaxs, predmetni ko'rsatish yoki aytilganlarga ishora) vazifani bajaradi. Bu uch komponent (turli olmoshlar uchun har xil nisbat bilan) berilgan so'z turkumining mazmunini belgilaydi. Bejiz ularni rus tilida mestoimeniya ((v)mesto-imeniyami), o'zbek tilida olmosh (almash) deb nomlanmagan.

Olmoshlar nutqiy faoliyatda eng ko'p qo'llanadigan muhim va pragmatik imkoniyatlarga boy so'z turkumi hisoblanadi. Ayniqsa, kishilik, ko'rsatish olmoshlari lingvopragmatik o'ziga xos



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 31, June, 2024

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

xususiyatlarining kengligi bilan tadqiqotchilar diqqatini tortadi. Olmoshlarning pragmatik ma'nosi matnda va nutqiy muloqot muhitida faollashadi.

Kishilik (shaxs) olmoshlari uchta shaxsni bildiradigan so'zlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Bu so'zlar muayyan nutq harakati kechayotgan jarayon yoki matnda turli pragmatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi. Matndan ajratib olinganda aniq bir ma'no, ya'ni so'zlovchi – nutq subyekt, tinglovchi hamda uchinchi shaxs semasini ifoda etuvchi maxsus so'zlar hisoblanadi. Aynan shu xususiyat kishilik olmoshlariga xos indikativ semantik ma'nosidir. Bu so'zlarning real nutq jaryoni yoki matndagi funksional harakatlanish darajasi va ifoda qilish vazifasi mavjudligini ularni pragmatik tadqiq etganda aniq ko'rishimiz mumkin. **Men** – I shaxs, so'zlovchi va u bilan aloqador hamma narsa, **sen** - II shaxs, adresat (tinglovchi) va uning doirasi, **u** – III shaxs, muloqotda bevosita ishtirok etmaydigan barcha kimsa va nimadir, odamlar va narsalardir. Bu olmoshlar faol deytik birliklar sifatida matnda qo'llanilganda deyksisning eksplitsit ifodalanishi namoyon bo'ladi. Ayrim matnlarda olmoshlar qo'llanmasa-da, matn mazmunidan ma'lum bir obyektga ishora sezilib turadi. Bu deyksisning implitsit, ya'ni yashirin ifodasidir. Qiyoslang: *Men buning ig'voligini isbot qilaman // Buning ig'voligini isbot qilaman*.

Yuqoridagi birinchi gapda *men* va shaxs-son qo'shimchasi eksplitsit tarzda shaxs deyksisi ifodalangan bo'lsa, ikkinchi gapda "*men*" olmoshi tushirib qoldirilgan bo'lsa ham, *-man* shaxs-son qo'shimchasi orqali uni tiklash imkoniyati mavjud. Lekin gapda kesim vazifasida kelayotgan fe'ning shaxs-son ko'rsatkichida ham so'zlovchi shaxsiga ishora borligi sababli "*men*" olmoshining tiklanishiga ehtiyoj yo'q.

Pragmatikada nutqiy aktning bevosita kontekst bilan munosabatini o'rganish ko'rsatiladi. Ko'rinadiki, nutqiy akt bilan kontekst o'rtasidagi munosabat juda kuchli bo'lganda, nutqiy akt ma'nosi kontekst bilan bog'liq holda anglangan o'rinlarda pragmatikaga ehtiyoj tug'iladi [3:12]. Haqiqatdan ham matn tarkibidagi deskriptiv, ya'ni indikativ (denotativ ma'noga ega bo'lgan, atash vazifasini bajaradigan) so'zlarni semantika o'rganadi [1:14]. Matnda har qanday so'zning ma'nosi o'zining qurshovidagi so'zlar bilan ma'nosi oydinlashadi. Shunday ekan, pragmatikada indikativ bo'lmagan, ma'nosi kontekst bilan bog'liq, ma'lum vaziyatda reallashadigan jihati o'rganiladi. Masalan: "*Nahotki?! Yog'du-a? Tashlab ketdimi? **Meni-ya?! Mumkin emas!.. Mumkin emas!.. Mumkin emas!..** – deya baqirdi Po'lat. (Ulug'bek Hamdam)* Ushbu gapda *men* olmoshi – ya ta'kid yuklamasi bilan qo'llanilib, hayrat, ajablanish, modallik ma'nolari ifodalanganligini kuzatish mumkin. Lekin matnda so'zlovchining nima uchun hayratlanishi, ajablanishishi kabi ma'nolari anglashilmaydi. Shuning uchun ham lingvopragmatik tahlilning maqsadi ana shunday matnda ifodalanmagan deskriptiv ma'nolarni aniqlash hisoblanadi. Quyidagi misolga e'tibor qarataylik:

– *Jo'lomon! Qayerdasan? **Bu men, onang bo'laman! Qayerdasan? Ona tashvish ichida atrofga olazarak boqar ekan, manqurt o'g'li tuyasining soyasiga berkinib, tizzalab o'tirganicha kamonni tarang tortib mo'ljalga olayotganini payqamay qoldi.**(Chingiz Aytmatov)*

Yuqorida keltirilgan misolda kontekst tufayli semantik bo'sh "*men*" ("*men*" boshqacha!) o'zgacha mazmun bilan to'ldiriladi: ***Bu men, onang bo'laman!*** Ammo biz bu semantizatsiya ortida qo'shimcha - pragmatik soyalar borligini his qilamiz: Onaning ajablanishi yoki hatto xafa bo'lishi: o'g'li uni tanimadi, ovozidan ham tanimadi va hokazo.

Olmoshlar tilimizda turli modal munosabatlarni ifodalashi, matnlarda o'zaro va boshqa lisoniy komponentlar bilan sinonimlikni yuzaga keltirishi, o'zi bog'lanayotgan birliklar qurshovi



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 31, June, 2024

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

orqali xilma-xil okkazional semantik va pragmatik ma'nolarni namoyon etish imkoniyati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan:

– Yo'q, **siz shudgor qilmaysiz. Siz to'qsiz-ku**, – to'ng'iladi Mirhaydar. Amirqul aka pichog'ini sholchaga sanchib, irg'ib turdi:

– **Men to'q?! – dedi va o'ylanib, kulib yubordi. – Ha, men to'qman!** Yiqqanim yetti pushtimga yetadi. Qo'sha sigir ham bor, bo'rdoqiyam bor, matasekl ham bor. Senda... shu amaldan bo'lak narsa yo'q, agar undan tushsang, tishingni so'rib qolasan! (Nazar Eshonqul)

Birinci misolda siz olmoshi II shaxsni ko'rsatish bilan birga qo'shimcha kesatish, piching konnotativ ma'nolarini va ro'zg'oringizda kamchlik yo'q, boysiz

pragmatik semalarni ham ifodalayotgan bo'lsa, ikkinchi misolda *men* kishilik olmoshi I shaxsni ko'rsatish, *men* olmoshi to'q so'zi bilan birikib kesatish ma'nosining kuchli ifodasini ko'rishimiz mumkin.

Tilimiz tarixida **men** olmoshi o'rnida *kamina*, *faqir*, *banda*, *qulingiz* so'zlari keng qo'llanilganini kuzatish mumkin. “**Man** shaklining mumtoz adabiyot namunalari faol qo'llanilganligi uning eski o'zbek tilida *men* olmoshi bilan bir qatorda ishlatilganligidan dalolat beradi” [4:23]. Bu leksemalar, birinchidan, so'zlovchining kamtarinlik fazilatini ko'rsatsa, ikkinchidan, badiiy asarda davr va tarixiylik ruhini berishda muhim ahamiyatga ega. Masalan:

– Biz yaqinda Hirotda elchi yubormoqchimiz. **Kaminaga** Alisherbekdan kitobat kelgan edi. Javobini yozib yubormoqchimen.

– Amirzodam, qani edi, **qulingizning** bu qasidasini ham...

– Marhamat, xattotga berib ko'chirtirmoq zarur bo'lsa, *men* buyururmen. So'ng elchidan berib yuborurmiz. (Pirimqul Qodirov)

Ushbu matnda **men** olmoshi o'rnida qo'llanilgan *kamina* leksemasi kamtarlik ma'nosi bilan birga o'ziga bo'lgan e'tibordan xursandlik, zavqlanish kabi yashirin ichki bir tuyg'ularning ruhiyatida namoyon bo'lganini his etamiz. Shuningdek, matn mazmunida darajalanish hodisasi ham mavjud, ya'ni shoh Bobur buyuk shoir Alisher Navoiydan o'zini yuqori yoki teng qo'ymasdan **men** olmoshi o'rniga uning sinonimi **kamina** so'zini qo'llab, martaba jihatidan undan quyi pog'onada turganligiga ham ishora bor hamda yuksak ma'naviy kommunikativ xulqqa ega ekanligini ko'rsatadi. Keyingi jumlada (– Amirzodam, qani edi, **qulingizning** bu qasidasini ham...) ham yuqoridagi darajalanish hodisasining davom etganligini anglaymiz.

Men o'rnida **biz** qo'llanilganda ilojsizlik, chorasizlik ottenkalari ham anglashilishi mumkin: Biz bir dalada yurgan dehqon bo'lsak? (T.Murod)

Yozuvchi Mahkam Mahmudovning “Men – men emasman” hikoyasidan olingan diskurs parchasiga e'tibor qarataylik:

– Axir, anovi o'tloqdagi jilg'adan suv ichayotgan ohuni hech biringiz ko'rmayapsizmi? Qarang, u qanday iboli, tog' qizlariday hurkak, har bir sharpadan qochishga tayyor... Men bunday gaplarni birinchi eshitishim emas. Ilgari kelgan mehmonlarnpng ko'pchiligi ham shunday bahslashib o'tirishar edi. Bu sirli suratlarni *men* chizganman. To'g'risi, mening o'rnimdagi, vujudimdagi boshqa odam chizgan. Mehmonlar, eng yaqin do'stlarim ham shunday deb o'ylashadi. Aslida esa, ularni *men* chizmaganman.

Do'stlarim **meni** – **men** deb o'ylashadi.

Aslida men – men emasman...



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 31, June, 2024

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

Yuqoridagi matnda yozuvchi personaj ruhiy olamini yoritishda men kishilik olmoshini qarama-qarshi, zid qo'llash orqali yurakli va yuraksiz, o'tmishini sog'ingan, o'tmish va bugun o'rtasidagi bahs, nosog'lom muhitda iste'dodning quvg'inga uchrashi, lekin har qanday mashaqqatli zamon va muhitda ham o'zligini saqlash kabi kuchli pragmemalar “**Aslida men – men emasman**” propozitsiyasida jamlanganligini anglab olishimiz mumkin.

Kishilik olmoshlari nutq jarayonida ba'zan takror holda qo'llanib, ta'kid ma'nosini ifodalaydi: *Ilgari doim men otangni suyab turaman, men bo'lmasam, uning bir kuni ham o'tmaydi, yo'lga solgan ham men, dardini olgan ham men, derdim. Endi balsam, aslida otang menga tirgak bo'lgan ekan. Men uni emas, u meni tutib turgan ekan. Tushunyapsanmi, bolam, u mening tirgagim ekan!.. (Ulug'bek Hamdam)*

Keltirilgan matnda men olmoshi takror va sanash ohangidan tashqari ham yordamchi so'zi orqali ta'kid semasini yanada kuchaytirgan, shu bilan birga o'ziga bo'lgan ishonchning noto'g'ri ekanligini anglash kabi pragmatik ma'nolar yuklanganligini sezamiz. Ba'zan so'zlashuv va badiiy diskurslarda I shaxs men olmoshi o'rnida I shaxs biz ko'plik olmoshini qo'llash orqali o'ziga xos pragmatik semalar ifodalanilishi mumkin. Masalan: : – *Ma, ich, amir, - dedi va kuldi. – Bilib qo'y, bizday amirul-mo'min qo'lidan yolg'iz sen may ichursen (O.Yoqubov); – Biz nima dardda keldig-u, siz yana nimalarni boshimizga ochmoqchisiz, a? – Yarim chin, yarim hazil aralash ginalandi Yog'du. (Ulug'bek Hamdam)*

Yuqorida keltirilgan birinchi misolda “hamma ham bunday sharafga erisha olmaydi, sen bunday iltifotga erishganing sababidan do'ppingni osmonga otishing mumkin” degan so'zlovchi yoki personajning xarakteriga xos manmanlik, kibr, minnat qilish kabi istehzoli pragmatik mazmun ifodasini anglash mumkin. Ko'p hollarda nutqda men va sen o'rnida biz va siz olmoshlari kamtarlik, o'zini ta'kidlamaslik maqsadida qo'llaniladi. Lekin ikkinchi misolda kesatiq, kinoyaning yengil ko'rinishi ifodalanganligini anglash mumkin.

Men olmoshi o'rnida biz olmoshining qo'llanishi ilmiy va rasmiy nutq uchun me'yor hisoblanadi. Masalan: *Komponent tahlil bizni mavzu talabidan kelib chiqib, olmoshlardan faqat stilistik ma'no axtaraverish tashvishidan ham qutqaradi.*

Refleksiv diskursni o'rganish aspektida tadqiqot markaziga kognitsiya egasining kommunikativ fikrlaydigan subyekti qo'yiladi. Fikrlovchi subyekt deganda muloqotning ichki va tashqi nutqiy faoliyati, ya'ni, ichki kommunikatsiya dialog/monolog shaklida amalga oshib, so'ng tashqi muloqotning nutqiy faoliyatida voqelanadigan kommunikant (muloqotchi) tushuniladi. Tahlil natijalariga ko'ra, individ nutqiy tafakkur faoliyatining tabiati fikrlovchi shaxsning temperament, tushunish va tushuntirish qobiliyati darajasi, intuitsiya, til tajribasi, refleksiv ong kabi individual kommunikativ mezonlari bilan belgilanadi. Ichki muloqotda fikr baholovchi ifoda bilan birga keladi. Baholash (lisoniy vositalar bilan) yordamida gapda so'zlovchi subyektning real voqelikka modallik kategoriyasi orqali munosabati o'rnatiladi. Shunday qilib, fikrlovchi shaxsning diskursda modal baholash turi quyidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi:

- 1) subyektiv (o'z-o'zini baholash);
- 2) aspektual (so'zlashuvdagi sherik kommunikativ o'zini tutish va real kommunikatsiya sharoitida muhitni baholash);
- 3) modal (so'zlashuv vaziyati oqimining baholanishi, kommunikativ orasidagi munosabatni baholash) [2].



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 31, June, 2024

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

Kommunikatsiya sharoitida so'zlashuv vaziyati va kommunikativ orasidagi munosabat hamda o'z-o'zini baholash subyekt sifatida ko'rib chiqishni taqozo qiladi. Masalan: *Nozima o'z uyiga begona, qochqin... O'zining-ku, fojeasi aniq, mevasiz tayoq. Men yetimchaning Mansurdan boshqa yaqinim, suyanchig'im bor bo'lsa ekan?! Men-ku, men bir osiy banda bo'lay.* (Tilovoldi Jo'rayev).

Bu misolda so'zlovchi fikrlash faoliyatining natijalari avvalo uning psixo-emotsional fonida namoyon bo'lib, mental holatining keltirib chiqaradigan – boshiga tushgan og'ir qismat, ilojisizlik, ishonchsizlik va ikkilanishdan chin ma'noda ayol ekanini isbotlash g'alayoni **men-ku, men bir osiy banda bo'lay** propozitsiyasi orqali kuchli pragmatik ifodasini topgan. Badiiy matnlarda nutq subyektining ichki muloqotida ba'zan **men** o'rnida **sen** qo'llaniladi va ifodaning o'ziga xos semantik ma'no noziklari yuzaga kelib o'zgacha pragmatik ma'nolarni namoyon qiladi: - *Bilmaydikim, ...yo'q, to'xta Muhammad Tarag'ay! Nechun sen shahzodadan ranjiysen?* (O.Yoqubov)

Sen olmoshi ham II shaxs birligini ifodalaydi. Birinchi navbatda gapda grammatik vazifa bajaradi, ikkinchidan esa, u nutq faoliyatida muayyan kontekstual emotsional-ekspressiv ma'no ottenkalari va pragmatik semalarning yuzaga keltirishi bilan izohlanadi. Shuni aytish kerakki, bu ma'no ottenkalari asosan so'zlashuv va badiiy uslub doirasida yuzaga chiqishi keng kuzatiladi. Rasmiy va ilmiy uslub uchun xos emas. **Sen** olmoshi muloqot maqsadi va ma'lum nutq vaziyatida turli xil kontekstual semantik-pragmatik semalarni ifodalashi mumkin: **Sen kimsanki, o'lim sen-la hisoblashsa // Topib-topib borgan yering mozor bo'lar!** (Xayrulla Hamidov);

Oksimoron o'z mohiyatiga ko'ra kognitiv hodisa hisoblanadi. So'zlovchi yoki yozuvchi noodatiy birikmani qo'llashda dastlab so'zlarning ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Shu tarzda kommunikativ maqsadning yuzaga chiqishiga xizmat qiluvchi yangi ma'no hosil bo'ladi. Bunda oksimoronning nutqiy vaziyat uchun mosligi, anglatgan ma'no nozikliklari, qanday uslubiy vazifa bajarishi kabilar hisobga olinadi. Quyidagi misolda qiziq bir holat kuzatiladi: Shoir Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dostonidagi Stalinning ziddiyatli shaxs sifatidagi ijobiy va salbiy xarakter-xususiyatlari **u** kishilik olmoshining oksimoronlar bilan birikib o'zifa xos pragmatik ma'no yukini olganligini kuzatish mumkin: *U - yorug' dunyoda / Tengi yo'q inson / Qadrdon begona / Yovuz mehribon // O'sha mushtipardan so'rash lozim bu / Buyuk inson / Buyuk jallod haqida.*

Birinchi misradagi **u** kishilik olmoshi keying misralardagi uyushib kelayotgan oksimoronlarni umumlashtiruvchi shaxs o'rnida qo'llanilib, ma'noni kuchaytirishga xizmat qilgan hamda kuchli "nafrat", "davlat tuzumi boshqaruvidan norozilik" kabi yashirin pressupozitsiyalar ifodasini sezish mumkin.

She'rning keyingi misralarida Stalinga xos xususiyatlar **u** kishilik olmoshi takrori va oksimoronlarni kontrast qo'yib tasvirlash orqali obraz tasviri pragmatik yuki mukammalasha boradi: *Uning butun umri / Jumboqdan iborat / U ayni adolat / U ayni g'orat / U oqil buzg'unchi / U mohir me'mor – Inson suyagidan solgan imorat... // U xalqlar qotili / Xalqlar otasi / Tilim tebranmaydi / Yomon deyishga / U shunday ulug'ki / yo'qdir qiyosi / Qancha ulug' bo'lsa / Tubandir shuncha.*

She'r oxirida muallif o'z fikrlarini umumlashtirib, nutq yo'naltirilgan obyekt – Stalinga bo'lgan subyektiv munosabatini ifodalashda ham noodatiy birikmalardan foydalanadi: *U bir bag'ridaryo / Bir bag'ritoshdir / U bir quyosh / Ammo – Qora quyoshdir.*(94-bet).



The Peerian Journal

Open Access | Peer Reviewed

Volume 31, June, 2024

Website: www.peerianjournal.com

ISSN (E): 2788-0303

Email: editor@peerianjournal.com

Bu o'rinda birikma tarkibidagi *quyosh* so'zi Stalinning daho sifatida mamlakat siyosiy hayotida tutgan mavqeini ko'rsatayotgan bo'lsa, *qora* leksemasi uning zulm o'tkazish, qatog'on qilishga asoslangan faoliyatiga ishora qilmoqda. Bu ikki so'z qo'shilishidan hosil bo'lgan oksyumoron ziddiyatli shaxs degan tushunchani obrazli tarzda ifodalay olgan.

Umuman, olmoshlar predmet, belgi, miqdor bildiruvchi nomlarni qayta nomlash uchun xizmat qiladi va bularning ma'nosi nutq vaziyati, kontekst tarkibida oydinlashadi. Ikkinchi jihati olmoshlar nutq vaziyati bilan bog'liq holda nutqiy etiket shakllaridan biri sifatida so'zlovchining tinglovchi hamda nutq ishtirokchilariga munosabatini ifoda etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Odinayev B.I. O'zbek nutqiy muloqotining lingvopragmatik xususiyatlari (Erkin A'zam asarlari misolida): Filol. fan. doktori (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2024.
2. Пардаев З. Ички мулоқотда нутқ шахси фикрининг модал-баҳоловчи тури. Тил тараққиётининг деривацион қонуниятлари // Республика илмий-назарий конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2009. 29-33-бетлар.
3. Ҳакимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Akadempnashr, 2013. – 176 бет.
4. Юсупова О. Ўзбек тилида олмошларнинг функционал-стилистик хусусиятлари. Монография. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2017. 140 бет.